



Vikipediya xush kelibsiz!

Har kim hissa qo'sha oladigan ochiq ensiklopediya

O'zbekcha Vikipediyadagi maqolalar soni: **350 331**



Tanlangan maqola



Chempionat logotipi

Yevro-2016 (inglizcha: *2016 UEFA European Football Championship* yoki **EURO 2016**) – Futbol bo'yicha o'n beshinchi Yevropa chempionati. Musobaqa 2016-yilning 10-iyunidan 10-iyuligacha Fransiyada bo'lib o'tgan. Mazkur musobaqada Ispaniya amaldagi chempion sifatida ishtirok etgan. Biroq Italiya terma jamoasiga 1/8 finaldayoq mag'lub bo'lib, ispanlar musobaqani tark etishgan. „Stade de France“ stadionida bo'lib o'tgan final bahsida Portugaliya

terma jamoasi Fransiya ustidan 1:0 hisobida g'alaba qozonib, o'z tarixida birinchi marta Yevropa chempionligini qo'lga kiritgan. Birinchi marta Yevropa chempionatining final bosqichida 24 ta jamoa ishtirok etdi. 1996-yildan beri 16 ta jamoa chempionatning guruh bosqichida ishtirok etib kelayotgan edi. Yangi formatga ko'ra, ishtirokchilar to'rtta jamoadan iborat olti guruhga taqsimlangan. So'ngra uchta raund va finaldan iborat pley-off bosqichi o'tkazilgan. O'n to'qqizta jamoa: to'qqizta saralash guruhining har biridan 1- va 2-o'rinni egallagan jamoalar va 3-o'rinni egallagan eng yaxshi 4 ta terma jamoa mezbon Fransiya bilan birgalikda chempionatda qatnashish huquqiga ega bo'lishdi. 2015-yilning noyabr oyida uchinchi o'rinni egallagan jamoalar o'rtasida ikki o'yindan iborat pley-off bahslari o'tkazilgan va so'nggi to'rtta ishtirokchi nomi aniqlab olingan. (**Davomi...**)

Nomzodlar (2) · **Arxiv** · **O'zgartirish**



Yaxshi maqola

Toshkent mozaikalari — O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrida 1960—1980-yillar oralig'ida barpo etilgan monumental mozaika san'ati namunalari. Mazkur mozaikalar madaniy meros obyekti sanalad Bu mozaikalar shaharning sovet modernizmi ruhida qayta qurilishi jarayonida, ayniqsa, 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan keyin boshlangan keng qamrovli arxitektura va bezak san'ati dasturlari doirasida vujudga kelgan. Asosan XX asrning 60-yillari oxirida Toshkent shahridagi yangi turarjoy majmualarining devorlariga terib chiqilgan. Mozaikalarning yaratilishi, bir tomondan, shaharga zamonaviy qiyofa berish, ikkinchi tomondan esa mehnat, xalqlar do'stligi, tinchlik va ilm-fan rivoji kabi ideologiyalarni targ'ib qilishga qaratilgan. Sovet Ittifoqi ommaviy monumental mozaikani badiiy mahorat va g'oyalarni yetkazishning mukammal kombinatsiyasi sifatida ko'rgan. Badiiy ijod erkinligiga cheklovlar mavjud bo'lgan bo'lsa-da, ko'plab rassomlar ushbu sharoitda ham o'ziga xos individual uslublar yaratishga muvaffaq bo'lishgan. (**Davomi...**)



Toshkent mozaikalari

Nomzodlar (3) · **Arxiv** · **O'zgartirish**



Xushsifat maqola

Filippin 1924-yil 4-maydan 27-iyulgacha Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan Yozgi Olimpiada o'yinlarida ishtirok etgan. Bu mamlakatning Yozgi Olimpiada o'yinlaridagi debyut ishtiroki bo'lgan. Filippin, shuningdek, butun Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari orasida Yozgi Olimpiadada ishtirok etgan ilk mamlakat hisoblanadi. Delegatsiya tarkibida sprinter David Nepomuceno hamda ikki nafar rasmiy shaxslar attashe B. Minelle hamda murabbiy va ijrochi ofitser Regino Ylanan bor edi. Yana ikki nafar sportchi Fortunato Catalon va Juan Taduran ham o'yinlarda ishtirok etishi kerak edi, ulardan Catalon Parijga yetib kelgan bo'lsa-da, musobaqada qatnashmagan, Taduran esa yelka suyagini sindirib olganligi sababli musobaqada ishtirok eta olmagan. Biroq shunga qaramay, Taduran delegatsiya tarkibida Filippin vakili sifatida o'yinlarga tashrif buyurgan. (**Davomi...**)



[Nomzodlar \(2\)](#) · [Arxiv](#) · [O'zgartirish](#)



Tanlangan ro'yxatlar

So'nggi tanlangan ro'yxat

[Iqtisodiyot bo'yicha Nobel xotirasi mukofoti laureatlari ro'yxati](#)

Bitta oldingi tanlangan ro'yxat

[Adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindorlari ro'yxati](#)

[Nomzodlar \(0\)](#) · [Arxiv](#) · [O'zgartirish](#)



Yangiliklar

[Futbol bo'yicha jahon chempionati](#) · [Afg'oniston-Pokiston urushi](#) · [AQSh va Isroilning Eronga qarshi urushi](#) · [Rossiyaning Ukrainaga bosqini](#) · [Sudan mojarosi](#)

- Javohir Sindarov (*suratda*) **shaxmat bo'yicha Nomzodlar turnirida** muddatidan oldin g'alaba qozondi.
- Italiyaning Milan va Kortina-d'ampetsso shaharlarida o'tgan **25-Qishki Paralimpiya o'yinlari** yakunlandi.
- „One Battle After Another“ filmi oltita yo'nalish bo'yicha **2026-yilgi Oscar kinomukofoti** sohibi bo'ldi.
- Farg'onaning „Neftchi“ futbol klubi o'z tarixida birinchi marta [O'zbekiston Superkubogi](#) **sohibi bo'ldi**.
- Muhtabo Xomaniy **Eron Oliy Rahbari** etib tayinlandi.



Javohir Sindarov

Yaqinda vafot etganlar: [Sam Neill](#) · [Amin Tojiyev](#) · [Ibrohim G'afurov](#) · [Abdusamad Do'rmonov](#) · [Dono Boboxonova](#) · [Xushnudbek Avilov](#)

[O'zgartirish](#)



Bilasizmi...

- Zilzilalarni **bashorat** qilish metodi haligacha yo'q.

- Islandiyadagi **Eyjafjallajökull muzligi** nomini dunyo aholisining 0.005 foizi to'g'ri ayta oladi.
- **To'ybop qo'shiqning** matnini mashhur qiziqchi yozgan.
- **Alfred Nobel** nazariy fanlarga qiziqmagani uchun matematika bo'yicha mukofot ta'sis qilmagan (sevgilisi matematik bilan qochib ketgani uchun, degan gap esa afsonadir).
- **Ravshan Ermatov** futbol bo'yicha jahon chempionatlarini eng ko'p boshqargan hakam sifatida Guinness rekordlar kitobiga kiritilgan.
- **Avtomobil oynalarini qoraytirish** — jinoyat emas.
- Kompyuter sichqonini ishlatish mumkin bo'lgan ilk kompyuter **Xerox Alto** (*tasvirda*) bo'lgan.



Xerox Alto
kompyuteri

[Kelgusi sonni tayyorlash](#) · [Arxiv](#) · [O'zgartirish](#)



Tarixda bugun

- 64 — Rim shahri katta yong'in ichida qoldi.
- 1290 — Eduard I yahudiylarni Angliyadan quvish haqida qaror chiqardi.
- 1878 — Adolf Erik Nordenskiöld (*tasvirda*) ilk marotaba Atlantika okeanidan Tinch okeaniga Shimoliy muz okeani orqali bordi.
- 1898 — Pierre Curie va Marie Curie urandan boshqa radioaktiv elementlar borligini isbotlashdi.
- 1925 — Adolf Hitlarning „Mein Kampf“ kitobi nashrdan chiqdi.



[Kelgusi sonni tayyorlash](#) · [Loyiha](#) · [O'zgartirish](#)



Tanlangan tasvir



[Arxiv](#) · [Ko'proq tanlangan tasvirlar](#) · [O'zgartirish](#)

MediaWiki

Wiki dasturlash



Meta-Viki

Media loyihalari koordinatsiyasi



Vikigid

Sayohat haqida ma'lumotlar



Vikiqitibos

Qitiboslar to'plami



Vikiitob

Bepul kitoblar va qo'llanmalar

Vikilug'at

Lug'at va tezaurus



Vikimanba

Ochiq kutubxona



Vikima'lumotlar

Bepul bilimlar ombori



Vikimbor

Bepul mediafayllar ombori



Vikiturlar

Bilimlik turlar katalogi

Vikiuniversitet



Ochiq o'qitish asboblari

Vikiyangiliklar



Ochiq matnli yangiliklar

Turkiy tillardagi Vikipediyalar

Boshqirdcha · Gagauzcha · Janubiy ozarbayjoncha · Oltoycha · Ozarbayjoncha · Qirg'izcha · Qoraqalpoqcha · Qorachoy-bolqorcha · Qozoqcha · Qrim-tatarcha · Tatarcha · Turkmancha · Turkcha · Tuvacha · Uyg'urcha · Yoqutcha · Chuvashcha

"https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Bosh_Sahifa&oldid=3850899" dan olindi